



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### SADRIDDIN SALIM BUXORIYNING SINONIM SO'ZLARDAN FOYDALANISH MAHORATI XUSUSIDA

**Mehmonova Sojida Astanaquli qizi**

*Buxoro davlat universiteti, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida  
mustaqil tadqiqotchisi  
+998978557756*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro farzandi Sadriiddin Salim Buxoriyning so'z qo'llash mahorati, xususan, ijodkor ijodida sinomiya hodisasining qo'llanilishi haqida so'z boradi. Har bir nazariy fikr shoir ijodidan saralab olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan. Ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-eksoressiv ifoda semalari qabariq holda namoyon bo'lgan leksik birliklarni aniqlash va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Har bir nazariy fikr shoir saralab olingan materiallar bilan keng dalillangan va munosabat bildirilgan.

**Tayanch so'zlar:** Sinonimlik, lug'aviy sinonimlik, kontekstual (matniy) Sinonimlik, sinonimik qator, bosh so'z.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ilm-fanni rivojlantirish borasida ilm-fan fidoyilariga katta ishonch bildirmoqda va bu borada qator islohotlar olib borilayotganligiga quyidagi fikrlari yaqqol dalildir. "Mamlakatimizda ilm-fanni dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan darajada rivojlantirish uchun sizlarga va barcha olimlar, ilmiy jamoalarga zamonaviy shart-sharoitlarni yaratib berish biz uchun ham qarz, ham farzdir"[1].

So'z sehridan kuchliroq sehr, qudratliroq hodisa yo'q. Bu qudratli sehridan foydalanishda badiiy so'z san'atkorlari – shoir va yozuvchilardan mohirlik talab qilinadi. Bilamizki, ijodkorlarning mahorati ularning til hodisalaridan qay darajada foydalana olishida ko'rinadi. Til vositalaridan unumli foydalanish orqali har bir ijodkor o'zigagina xos uslubni yaratadi.

Badiiy matnni lingvostilistik tahlil qilish jarayonida ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda namoyon bo'lgan leksik birliklarni aniqlash va ular ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish muhim. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, mahalliy, vulgar va h.k. so'zlar tahlilga tortiladi va ulardan qay maqsadda foydalanilgani izohlanadi. Biz tadqiqotimiz asosi bo'lgan



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

iste'dodli shoir Sadridin Salim Buxoriy she'riyatining leksik-poetik xususiyatlarini shu asosda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Sinonimlar – talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiy) bo'lgan, qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsional bo'yog'i, qo'llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. Umuman olganda, sinonimlar shaxs, narsa, belgi, xususiyat, voqea-hodisa va harakatning bir necha nom bilan aytilishidir. Sinonimlar til boyligi bo'lib, avvalo, narsa va hodisalarning nozik ma'no bo'yoqlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shoir Toshpo'lat Ahmad she'riyatida ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda mohirona qo'llaganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ayrim misollarni kuzatamiz:

Nayrang~ aldov~tuzoq. Senga kor etmas nayrang, Kor etmas aldov, tuzoq. (Ko'zmunchoqday xoling bor...) Ushbu she'rda Sadridin Salim Buxoriy ko'zmunchoqday yorini ta'rif qilib yozadi. Nayrang so'zining sinonimik qatorini ko'rib chiqadigan bo'lsak: Nayrang forscha so'zdan olingan-hiyla, makr,aldov, focus, sehrGARlik so'zlaridan iborat. Ushbu misrada tuzoq so'zi kontekstda sinonimlikni hosil qilgan.

Nahr~daryo. Suvdan nahr, daryo to'ymagan kabi, Tojidan podsho to'ymagan kabi. (Suvdan nahr, daryo to'ymagan kabi) she'rining boshlanishi shumdy boshlanadi. "Nahr"- arabcha so'zdan olingan, daryo so'zining eskirgan shaklini hosil qiladi. Bu yerda shoir sinonim so'zlarni ketma-ket qo'llash bilan, ma'noni kuchaytirishga muvaffaq bo'lgan.

Muammo~ tugun. Sevgi bo'lib ko'zlaringni yoqaman, Muammolar, tugunlar yechiladi.(Quvonch bo'lib derazangi qoqaman) she'ridan olingan. Muammo so'zi arabcha so'z bo'lib, jumboqli, sirli, g'alati, boshqotirma kabi so'zlar bilan bir sinonimik qator tashkil qiladi va dominant so'z hisoblanadi. Tugun so'zi omonim so'zdir, muammo ma'nosini beruvchi ma'nosi ham mavjud. Ushbu so'zlarni ketma-ket qo'llash bilan shoir ham ma'noni kuchaytirgan ham she'rning musiqiyiligini taminlagan.

Osmon~ zamin . Daraxt, bir-ku bizlarning zamin, Osmonimiz bir-ku, ne sabab,Buncha saxiy sening qo'llaring, Uyalaman qo'limga qarab.... (Daraxt, sening qo'llaring ko'pdir) she'ridan olingan misra. Ikkala so'z ham forscha so'z bo'lib, sinonimik qatori: ko'k, samo, falak, moviy fazo, zamin kabi so'zalar bilan bir qatorni tashkil qiladi. Ushbu so'zlarni misralarda qo'llab Buxoriy bir xillikdan qochmoqchi bo'lib qo'llagan desak mubolag'a bo'lmaydi.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Nochor~ kambag'al. Yashasa-da ba'zan kambag'al, nochor, Cheksa hamki zamondan gohi ozor. (Zavqiy so'zi). Kambag'al forscha-arabcha so'z bo'lib, qashshoq, yo'qsil, nochor, muhtoj so'zlari uchun dominant so'z hisoblanadi.

Dasht~ sahro. Karsten Nibur arab tilini Bemashaqqat o'rgandi, ammo- Ming mashaqqat ayladi peshkash Tilsiz dasht-u zabonsiz sahro.

Shodlik~tantana. Kammi shodlik, kami tantana? Saltanatu shon-shuhrat kami?(Amir Abdulahad haqida she'ridan)

Sadriddin Salim Buxoriy ijodida sinonimlarning turli ko'rinishlaridan o'rinli foydalanib bir-biridan mazmundor, shu bilan birga, o'ynoqi misralar yaratganki, mazkur holat shoir she'rlarining o'qishli bo'lishini ta'minlashga qo'l kelgan, deya olamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent-"O'zbekiston"-2017 166-180-bet

2 . Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Тошкентб. 2007, 379 б.

3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 339 б.

4. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Т., 2009. 33-б.

5. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darslik Toshkent-"ILM ZIYO"-2015

6. Jamolxonov H."Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent- "Talqin"-2005.

7. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларнинг изоҳли луғати. –Т,: Ўқитувчи, 1980.

8. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – 2009,34-bet.

9. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Т.: "Talqin", 2005. – 272b.

10. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: ЎзМЭ, 2002. 124 б.

11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Тошкент: Ўзб. Мил. Энцикл., 2006–2008.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"**

12. Йулдошев М.М. Бадиий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари. -Тошкент: Фан, 2007.- 123б.